

"O'zkimyosanoat" AJ xalqaro hamkorlikdagi loyihalarni kengaytirmoqda

// 03.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-xalqaro-hamkorlikdagi-loyihalarni-kengayti>



"O'zkimyosanoat" AJ ishlab chiqarish jarayonlariga investitsiyalarni jalb etish, xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va o'zaro manfaatli yangi loyihalarni yo'lga qo'yish maqsadida amaliy harakatlar olib bormoqda.

Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ va Xitoyning China Huanqiu Contracting & Engineering Corporation (HQC) kompaniyasi o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish va yangi loyihalarni yo'lga qo'yish yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.



Muloqot chog'ida "Navoiyazot" AJ negizida ammiak va karbamid ishlab chiqarish loyihasi hamda "Ammofos-maxam" Ajda fosfogips chiqindisini qayta ishlash orqali sulfat kislotasini ishlab chiqarish loyihalarini yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

Muzokara yakunida mazkur loyihalarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan xadli bitimlar imzolandi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati